



JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>**DESIGNATION AND MAPPING OF NEW TOURIST ROUTES IN KHIVA DISTRICT****Mamajan Matchanovna Ganjaeva**

Lecturer

Urganch State University

Urganch, Uzbekistan

E-mail: ganjayeva_m@mail.ru**Nodira U. Sadullaeva**

Lecturer

Urganch State University

Urganch, Uzbekistan

Sanjarbek Kh. Khaytimmatov

Lecturer

Urganch State University

Urganch, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** tourist objects, tourists, palaces, mosques, towers, showrooms, recreational, tourist infrastructure**Received:** 22.06.23**Accepted:** 24.06.23**Published:** 26.06.23**Abstract:** In this article, the opportunities for the development of tourist services in Khiva district are studied, and the state of measures implemented in the field is analyzed. Tourist facilities of Khiva district are mapped and possibilities of tourist facilities in the district are revealed.**XIVA TUMANI BO'YLAB YANGI TURISTIK MASHRUTLARNI BELGILASH VA KARTALASHTIRISH****Mamajan Matchanovna Ganjaeva**

O'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekistan

E-mail: ganjayeva_m@mail.ru**Nodira Umirbek qizi Sadullaeva**

O'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekistan

Sanjarbek Xusaynboy o'g'li Xaytimmatov

O'qituvchi

Urganch davlat universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turistik obyektlar, turist, saroylar, masjidlar, minoralar, shou-rumlar, rekreatsion, turistik infratuzilma

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva tumanining turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilgan, sohada amalga oshirilayotgan chora tadbirlar holati tahlil qilingan. Xiva tumanining turistik obektlari xaritalashtirilgan hamda tumandagi turistik obyektlar imkoniyatlari ochib berilgan.

**ОБОЗНАЧЕНИЕ И КАРТИРОВАНИЕ НОВЫХ ТУРИСТИЧЕСКИХ МАРШРУТОВ
В ХИВИНСКОМ РАЙОНЕ**

Мамаджан Матчановна Гянджаева

преподаватель

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

E-mail: ganjayeva_m@mail.ru

Нодира У. Садуллаева

преподаватель

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

Санжарбек Х. Хайтимматов

преподаватель

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: туристические объекты, туристы, дворцы, мечети, башни, выставочные залы, рекреация, туристическая инфраструктура

Аннотация: В данной статье изучены возможности развития туристических услуг в Хивинском районе, а также проанализировано состояние реализуемых в сфере мероприятий. Нанесены на карту туристические объекты Хивинского района и выявлены возможности туристических объектов в районе.

KIRISH

Xorazm - O'zbekistonning qadimiy mintaqasi hisoblanadi. *“Mingta qal’alar mamlakati”* – Xorazmni undagi ko‘plab ko‘hna yodgorliklari sababli shunday nom bilan atashadi. Ming yillik tarixga ega qadimiy shaharchalar, saroylar, masjidlar, minoralar – bu yerdagi har bir toshning o‘z tarixi bor.

Xorazm viloyati respublikamiz viloyatlari orasida turistik jihatdan alohida ajralib turadi. Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayohatchilarning asosiy qismi Xiva shaxriga borishni

xoxlashadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida shunday topshiriq bergan edilar.

ASOSIY QISM

"Biz chet ellik turistlarni qadimiy tariximiz va qadriyatlarimiz bilan jalb qilishimiz mumkin, lekin Xorazm, Xivaning tarixi to'liq o'rganilmagan, uni tanishtirish bo'yicha tizim ham yo'q. Shuning uchun Xorazm tarixini eng qadimgi davrdan boshlab yilma-yil o'rganib, odamlarga sodda tilda tushuntirishni yo'lga qo'yish kerak. Muhim davrlar va voqealar, har bir xon hayoti bo'yicha shou-rumlar tashkil etib, sayyohlarni qiziqtirish zarur. Xivaga kelgan odam katta taassurot, bilim olib ketsin, bu yerda ko'proq qolib vaqtini mazmunli o'tkazsin", - dedi Shavkat Mirziyoyev. Shu o'rinda xududlar taxlil qilinar ekan, Xiva tumani Xorazm viloyatida o'zining turizm salohiyati bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi. Tumanda mavjud turistik resurslarni rivojlantirish hozirgi kunda davr talabi xisoblanadi.


Xiva tumanida turizm sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi viloyatimizga katta hajmdagi valyuta tushumlarini kirib kelishi va yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Bu borada viloyatda turizmning rivojlanishiga tabiiy va iqtisodiy geografik omillarning ta'siri, ularning hududiy farqlari va mavsumiy o'zgarish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Viloyatda turistik xaritalarni loyihalash va tuzish; Viloyatni turistik rayonlashtirish xaritalarini tuzish; turistik obyektlar va ularga baho berish; hududiy turistik rekreatsion tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish; hududlarning turistik infratuzilma salohiyatini baholash; hududlarning turistik rivojlanishi bo'yicha reytinglarini aniqlash; turistik marshrutlarni loyihalash va tuzish; hududlarning turizm salohiyati bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash, va umumlashtirish va tahlil qilish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyati Xiva tumanida turizm sohasini kompleks rivojlantirishda turistik xaritalardan foydalanish, turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning ob'ektiv zarurati va ahamiyati o'rganilib, mazkur yo'nalish bo'yicha mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda analiz va sintez, kuzatish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistika va iqtisodiy

tahlil kabi usullar orqali turizm sohasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash usuli taklif etilgan.



1-rasm Xiva tumanining turistik obyektlar xaritasi

Xiva - qadimiy devorlar, minoralar va loydan qurilgan betakror binolar shahri hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu hudud turistlarda o'ziga hos bo'lgan qiziqishlarni uyg'otadi. Yuqoridagi 1-rasmda Xivaga kelgan turistlarning vaqtlarini yanada mazmunli o'tkazish uchun amalga oshirish mumkin bo'lgan marshrutlar ishlab chiqildi. Ushbu xaritada turistik obyektlar ko'rsatilib o'tilgan. Quyida xaritadagi ayrim obyektlarga qisqacha ta'rif berilgan.

Ogohiy uy muzeyi

XIX asrda Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy edi. 1809 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tavallud topgan. U Munisning jiyani bo'lib, Munis qo'lida tarbiyalanilgan.

Ogahiy yetuk olim va shoir, tarjimon va tarixchi, Munisdan keyin xonlikni

2-rasm Ogahiy uy muzeyi



mirobi bo'lgan. Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan 20 dan ortiq asarlarni o'zbek tiliga o'girib tarjimashunoslik maktabini yaratgan. Adibning qabri hozirgi kunda amakisi Shermuhammad Munis qabri bilan birgalikda Shayx Mavlon bobo qabristonida joylashgan bo'lib, ushbu joy Xiva yaqinidagi Eski Qiyot qishlog'ida joylashgan.

Chodra hovli

Chodra hovli Xiva shahridan 11 km sharqda, Yangiariq yo'lida joylashgan. Bu betakror ko'rinishdagi bino 1871 yilda Muhammad Rahimxon tomonidan yozgi dam olish qarorgohi sifatida qurilgan.

3-rasm Chodra hovli



To'rt qavatli, balandligi 30 metr keladigan bino xuddi minoraga o'xshatib qurilgan. Pastki o'lchamlari 16m X 8m. Binoning tagida ikkita omborxona va otxona bor. Birinchi va ikkinchi

qavatlarda yashash xonalari joylashgan. Chodra hovli Bundan 150-yil oldin barpo etilib tevarak atrofi so‘lim bog‘ hamda asriy Xorazm gujumlari bilan o‘ralgan, bir vaqtlar sayyohlik yo‘nalishiga kiritilgan va dunyoning turli burchaklaridan kelgan sayyohlar hayratiga ushbu arxitektura yodgorligi sazovor bo‘lgan.

Qibla toza bog‘

Har bir Xiva xoni o‘z davrida dunyoda tengsiz bir saroy yoki dala hovli qurishga harakat qilgan. Xiva saroylari va qasrlari orasida eng mashhurlaridan biri Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan 1897 yilda qurilgan Qibla Toza bog‘ saroyidir.

Saroy o‘zining kengligi, me‘moriy uslubi, Xivaga xos ayvonlarning turli tumanligi, qurilish texnikasining betakrorligi bilan ajralib turadi. Saroy uchta katta kompleksdan iborat: birinchi hovli xon va saroy ahli xizmatkorlar uchun, ikkinchi hovlida xon va uning oila a‘zolari yashaydigan bir necha ayvon, uchinchi hovli- ayvon va xonalardan iborat.

4-rasm Qibla toza bog‘



Isfandiyorxon davrining ilk yillarida (1913y) qurilgan ushbu uchinchi hovli xuddi 1912 yilda Nurullaboyda qurilgan qabulxonaga o‘xshatib qurilgan, lekin bu yerda ustalar ko‘proq gireh (geometrik) naqshlarni ishlatganlar. Qadimda saroy o‘rtasida hovuz, gulzor mavjud bo‘lib, hovuz atrofiga soyasi kishi taniga orom bag‘ishlaydigan gujum daraxtlari ekilgan. Saroyning atrofida yozgi va qishgi masjid, madrasa, maktab, otxona, tegirmon bo‘lgan. Saroyni gir atrofi bog‘ bilan o‘rab olingan. O‘z davrida ushbu saroy yonida Vaziri akbar Islom xo‘jani uyi ham, saroy chiroyiga ko‘rk qo‘shib savlat to‘kib turgan.

Xivalik usta Quronboy Matkarimov va katta usta Botir aka Boltaev boshchiligidagi bir guruh ta‘mirchi-rassom va naqqosh ustalar 1990-yillarda ushbu maskanda ta‘mirlash ishlarini olib

borishgan. Hozirgi kunda saroy chet ellik mehmonlarning sevib tomosha qiladigan joyiga aylangan.

Islom Xo'ja madrasasi

Xiva xoni Isfandiyorxonning vaziri va qaynotasi Sayid Islom xo'ja 1908-1910 yillarda Pahlavon Mahmud maqbarasi yaqinda bitta madrasa va minora qurdiradi. Madrasani usta Xudoybergan hoji qurgan, madrasa va minoraning koshin bezaklarini Eshmuhammad Xudayberdiyev ishlagan naqshlar asosida Xonqaning Madir qishlog'idagi ustalardan Bolta Vaisov va Madaminovlar ishlaganlar.



5-rasm Islom Xo'ja madrasasi

Madrasa 42 ta hujradan iborat bo'lib, 50 ta talaba o'qigan, uning oldingi qismi 2 qavat qilib qurilgan. Kiraverishda o'ng tomonda maxsus masjid ham qurilgan. Bosh fasadi bilan minoraga bog'liq bo'lgan madrasa tashqi tuzilishi va bezaklari boshqa madrasalardan farq qilmaydi. Peshtoqining yon qanotlari ikki qavatli ravoqlar qatori va burchak guldastalaridan iborat. Ravoqlar tepasi ayrim hoshiyalar va sirkor koshinlar bilan chiroyli qilib bezatilgan. Kichik hovli bir qavatli hujralar bilan o'ralgan. Devorlarida hech qanday bezak yo'q.

Peshtoqning orqa tomonida, hujralarning ustida oddiy yog'och ustunli ayvon qurilgan. Madrasaning eng yirik xonasi katta gumbazli masjiddir. Masjid madrasaning butun janubi-g'arbiy tomonini egallagan, masjidning ichki ko'rinishi Xiva ustalari ijodiga xos katta gumbazli xona tipida yopilgan. Masjidning janubiy tomonida joylashgan burchakdagi gumbaz ostida va mehrobda sirkor hamda ganchkori bezaklar ishlatib chiroyli manzara yaratilgan, madrasa uchun vaqf sifatida Islom Xo'ja o'z yeridan 14 ming 451 tanob yer ajratgan. Madrasada hozirgi vaqtda

“Xorazm Amaliy san’ati” muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda. Islom Xo‘ja zamonasining mashhur kishilardan biri bo‘lib, Xiva shahrining obodonchiligi uchun jon kuydirgan. Uning say harakatlari bilan Xivada kasalxona, pochta, telegraf, Qo‘sha darvoza, Nurullaboy saroyidagi Isfandiyorxonning qabulxonasi, Xorazmning ba’zi xududlariga temirdan yangi ko‘priklar qurilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, hozirgi kunda Xiva tumanida madaniy obidalar, tarixiy yodgorliklar qayta ta’mirlanmoqda, yangidan madaniyat, sport, ta’lim, san’at, sayyohlik manzillari, maskanlari tashkil etilib, koshonalik qasrlar, arxitektura qurilishlari paydo bo‘lmoqda. Turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan qonunlar, qarorlar asosida mutaxassis kadrlar tayyorlash, sayyohlarga madaniy xizmat ko‘rsatish yo‘lida xalqaro andozalarga (standart) mos bo‘lgan sayr-sayohatlar, ommaviy madaniy tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida shuni aytish lozimki, turizm sohasida kartgrafik bilimlar ham qo‘llashimiz juda zarurdir. Turistik xaritalardan chet ellik sayyohlarni marshrutlarni rejalashtirish, tashkil etishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turistik hudud resurs salohiyatini baholashning metodik asoslarini takomillashtirish Ravshan Aliyevich Allayorov "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №3(5) 2022
2. Инновацион иктисодиётнинг шаклланиши шароитида туризм ривожланиши иктисодий самарадорлигини оширишнинг объектив зарурати ва аҳамияти Холмуминов Шайзоқ Рахматович Дуstmуродов Орифжон Исматиллоевич REKREATSIYA VA TURIZM https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a43
3. Turizm (Sayyohlik): O‘quv qo‘llanma / T. Xoldarov, X. Tulenova; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, O‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. – T.: «IqtisodMoliya», 2016. – 144 b.
4. Туристтик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни ошириш стратегияси ва устувор йўналишлари Олланазаров Бекмурод давлатмуратович Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Самарқанд – 2019.